


## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-mart)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 678 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1986 ta (20,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 11788 tani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1345	1339	52
 Sanoat	1956	1941	144
 Qurilish	1135	1133	93
 Savdo	2392	2377	189
 Tashish va saqlash	490	488	29
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	915	909	55
 Axborot va aloqa	168	167	7
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	233	232	5
 Boshqa turlari	3275	3202	104



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 - yilning 1 - mart holatiga 11909 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,1 % savdo, 16,4 % sanoat, 9,5 % qurilish, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3504 ta), Karmana (2071 ta), Qiziltepa (1296 ta) va Xatirchi (1194 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (462 ta), Kanimex (377 ta) hamda Tomdi (207 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 11788 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1986 ta (20,3 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,1 % savdo, 16,3 % sanoat, 9,4 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3452 ta), Karmana (2060 ta), Qiziltepa (1286 ta), Xatirchi (1184 ta) va Navbahor (1042 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (459 ta), Konimex (372 ta) hamda Tomdi (204 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**






### Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-fevral oylarida 678 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 51,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (167 ta), Zarafshon shahrida (60 ta), Karmana (138 ta), Xatirchi (64), Qiziltepa (62 ta), Navbahor (60 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Kanimex (21 ta) hamda Tomdi (17 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

#### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (189 ta), sanoat (144 ta), qurilish (93 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (55 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (29 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (5 ta) hamda axborot va aloqa (7 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>284</b>	<b>100</b>	<b>449</b>	<b>100</b>	<b>678</b>	<b>100</b>
Savdo	67	23,6	54	12,0	189	27,9
Sanoat	70	24,6	76	16,9	144	21,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	53	18,7	84	18,7	52	7,7
Qurilish	24	8,5	41	9,1	93	13,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	9,2	38	8,5	55	8,1
Tashish va saqlash	21	7,4	10	2,2	29	4,3
Axborot va aloqa	3	1,1	10	2,2	7	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,7	7	1,6	5	0,7
Boshqa turlari	18	6,2	129	28,8	104	15,4

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni**








### Tijorat korxonalar.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 - yil 1 - mart holatiga 9754 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3530 ta, oilaviy korxonalar – 797 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5187 ta va boshqalar 240 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 - yil 1 - mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 130 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 66 taga ko'paygan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 82 tasi qo'shma korxonalar, 48 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar (51 ta yoki jami ulushi 39,2 %), Karmana tumani (31 ta yoki 23,8 %) va Nurota tumanlari (12 ta yoki 9,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Konimex tumani (5 ta yoki 3,8 %), Xatirchi tumani (3 ta yoki 2,3 %), Uchquduq tumani (2 ta yoki 1,5 %) va Tomdi tumanlari (1 ta yoki 0,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 77 tani (59,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18 tani (13,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 12 tani (9,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa savdoda 9 tani (6,9 %), axborot va

aloqada 1 tani (0,8 %), tashish va saqlashda 3 tani (2,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 tani (3,9 %) va qurilishda 5 tani (3,9 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa qurilishda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




#### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangidan tashkil etilgan korxonalarining soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 4 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Koreya Respublikasi – 3 ta Qozog'iston Respublikasi 2 ta,

Hindiston Respublikasi – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (10 ta), qurilish (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2018-yil yanvar-fevral		2019-yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	2	66,7	10	62,5
<b>Savdo</b>	x	x	x	x
<b>Qurilish</b>	x	x	2	12,5
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	1	33,3	1	6,3
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	x	x	x	x
<b>Axborot va aloqa</b>	x	x	x	x
<b>Tashish va saqlash</b>	x	x	x	x
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	x	x	x	x
<b>Boshqa turlari</b>	x	x	3	18,7



#### **Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.** (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 9676 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-mart holatiga qaraganda 23,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 2939 tasi (30,4 %) Navoiy shahri, 1806 tasi (18,7 %) Karmana, 1052 tasi (10,9 %) Qiziltepa, 880 tasi (9,1 %) hamda Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9676 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2367 tasi (24,5 %) – savdo, 1914 tasi (19,8 %) - sanoat, 1130 tasi (11,7 %) - qurilish, 1297 tasi (13,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 908 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 475 tasi (4,9 %) - tashish va saqlash, 156 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 173 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1256 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2019-yil yanvar-fevral oylarida 632 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 76,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy (155 ta) va Karmana (131 ta), Zarafshon (51) shaharlari, Qiziltepa (56 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Tomdi (16 ta) hamda Konimex (18 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (189 ta), sanoatda (143 ta), qurilishda (92 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (55 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta), axborot va aloqada (7 ta) tashkil etilgan.



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 800 tani tashkil etib, ulardan 797 tasi yoki 99,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 43,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 23,5 % yoki 187 tasi sanoat, 22,5 % yoki 179 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,3 % yoki 138 tasi savdo, 24,1 % yoki 192 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 8 tasi qurilish, 1,0 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 7,4 % yoki 60 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida, eng kami esa qurilish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
Tel.:71-230-84-56